

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

ATAXAJIYEVA FERUZA MASHRABDJANOVNA

**SOYANING YANGI MAHALLIY NAVLARIDAN YUQORI VA ERTAKI
HOSIL OLIH AGROTEXNOLOGIYASI ELEMENTLARINI ISHLAB
CHIQISH**

06.01.08–O‘simlikshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

ANDIJON–2023

UDK: 633.853.52:631.53.04:631.542.25

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation’s abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Ataxajiyeva Feruza Mashrabdjanovna

Soyaning yangi mahalliy navlaridan yuqori va ertaki hosil olish agrotexnologiyasi
elementlarini ishlab chiqish3

Атахажиева Феруза Машрабджановна

Разработка агротехнологических элементов получения высоких и ранних
урожаев из новых местных сортов сои.....21

Ataxajiyeva Feruza Mashrabdjanovna

Development of agrotechnological elements for obtaining high and early yields
from new local soybean varieties.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

ATAXAJIYEVA FERUZA MASHRABDJANOVNA

**SOYANING YANGI MAHALLIY NAVLARIDAN YUQORI VA ERTAKI
HOSIL OLIH AGROTEXNOLOGIYASI ELEMENTLARINI ISHLAB
CHIQISH**

06.01.08–O‘simlikshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

ANDIJON–2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Qx710 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.andqxai.uz.) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Teshayev Fatullo Juraqulovich qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Yormatova Dilorom Yormatovna qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Abduraxmonov Xusniddin Eshmamatovich qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 28 » 12 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170600 Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'chasi 1-uy. Tel.: (+99874) 373-10-54; faks: (+99874) 373-13-63; e-mail: info@edu.uz; Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 6159/11 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'chasi 1-uy, Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99874) 373-10-54).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 15 » 12 kuni tarqatildi.
(2023 yil « 15 » 12 dagi 47 -raqamli roestr bayonnomasi).



A.Isashov
Ilmiy kengash rahbari, q.x.f.d., professor.

A.N.Jo'raev
Ilmiy kengash a'zolari beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d.(PhD), dotsent.

K.S.Komilov
Ilmiy kengash a'zolari beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.n. professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dukkakli don ekinlari (*Fabaceae*) oilasiga mansub bo'lgan soya (*Glycine max (L.) Merr.*) bir yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, uning dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyati juda beqiyos. Soyaning ozuqaviy qiymati bo'yicha hayvon oqsiliga juda yaqin bo'lib, uni yetishtirish sayyoramiz aholisini nisbatan arzon o'simlik oqsili bilan ta'minlash muammosini hal qilishda muhim o'rin tutadi. Dukkakli don ekinlari orasida unga teng keladigani mavjud emas, uning urug'i tarkibida 30-52% (lyupindan keyin) oqsil, shu bilan birga oqsildan tashqari 18-27% gacha o'simlik moyi va inson, hayvonlar tanasiga zarur bo'lgan qimmatli makro va mikroelementlar mavjud. Moyli o'simliklar orasida soyaning o'rni beqiyos bo'lib, jahon ishlab chiqarishining 60 foizini, raps va kungaboqar o'simliklari esa mos ravishda 11-8 % ni tashkil qiladi. "Dunyoda soya ishlab chiqarilishi 2021-2022 yillarda 390,889 million tonnadan oshdi, bir yil avval AQSH Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA) ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich 361,82 million tonnani tashkil etgan edi."^[1] "Sanoatning jadal o'sishiga, birinchi navbatda, butun dunyo bo'ylab go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin o'sishi, xususan, Xitoy kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda importning 60% dan ortig'iga to'g'ri keladi (FAO)"^[2].

"BMT ma'lumotiga ko'ra, 1990 yilda 5,3 milliard, 2015 yilda esa 7,3 milliard bo'lgan dunyo aholisining soni ayni paytga kelib 8 milliarddan oshdi. Bu raqam 2050 yilda 9,7 milliardga, 2100 yilda esa 11,2 milliardga yetishi kutilmoqda."^[3] Hozirda dunyo aholisining eng katta qismi – 60 % (4,7 mlrd.) Osiyo qit'asida istiqomat qilmoqda. Jumladan, 2023 yilning 1 aprel holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 36 million 197 ming 781 kishini tashkil etmoqda^[4]. Dunyo aholisining bunday tez suratda ko'payishi natijasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi vaqtda dunyoda yer shari aholisining 30% dan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Bularning barchasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash naqadar dolzarb masala ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ma'lumki, inson organizmi hamisha go'sht, sut, qatiq, yog', tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlarini ko'p talab qiladi. Shu boisdan, moyli ekinlar, xususan soya ekib, ulardan yuqori hosil yetishtirgan holda olingan hosilni qayta ishlash jarayonida moy olish, yuqori ozuqa birligiga ega bo'lgan yem-xashak tayyorlab, chorva mollarini boqish, soya donidan soya suti tayyorlab buzoqlarni oziqlantirish va arzon mahsulot yetishtirish ham intensiv texnologiyadan foydalanishning biri hisoblanadi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l va sifatli hosil olishning istiqbolli texnologiyalarini yaratish, resurstejamkor agrotexnologiyalarni keng

¹ https://latifundist-com.translate.google.com/rating/top-10-proizvoditelej-soi-v-202021-mg?_x_tr_sl=ru&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=uz&_x_tr_pto=sc

² <https://www.fao.org/3/ca4526en/ca4526en.pdf>

³ <https://aniq.uz/statistika/dunyo>

⁴ <https://www.xabar.uz/jamiat/ozbekistonning-doimiy-aholisi-soni>

miqyosda joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 % ga yetkazish»^[5] muhim maqsadlardan biri etib belgilangan. Ushbu vazifalarni hisobga olgan holda, qishloq xo'jalik ekinlar turini tuproq holati va iqlim sharoitiga, aholi ehtiyojiga hos holda to'g'ri tanlash hamda tuproq unumdorligini saqlaydigan va oshiradigan, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiradigan qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil ta'minlaydigan agrotexnologiyalarini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 martdagi PQ-2832-sonli "2017-2021 yillarda respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 fevraldagi 105-sonli "Respublikada soya yetishtirish hajmlarini yanada ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soyani asosiy ekin sifatida ekishda uning biologiyasi va yetishtirish agrotexnologiyasi Ye.P.Gorelov, M.M.Saltas D.Yormatova, X.N.Atabayeva, M.Mannapova, A.D.Asrorov, I.I.Abitov, V.Muxitdinov, B.M.Xalikov, G.N.Tangirova, A.A.Iminov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, soya defoliyatsiyasi va desikatsiyasi muammolari ko'pgina xorijiy olimlar tomonidan, jumladan, O.M.Agafonov, A.A.Babich, V.F.Baranov, G.Singx, S.V.Kadirov, M.E.Belishkina, P.V.Yatchuklar, Ugo Toro Korrea, D.B.Egli tomonidan o'rganilgan. Biroq, ushbu tadqiqotlar asosan xorijiy davlatlarda o'tkazilgan bo'lib, hozirda soya desikatsiyasi va defoliatsiyasi bo'yicha respublikamizda ilmiy ishlar olib borilmaganligi sababli ishlab chiqarishda joriy etilmagan.

Shu nuqtai nazardan, soyaning yangi mahalliy navlaridan yuqori hosil olish hamda erta muddatlarda yog'in-sochiga qoldirmay, quritib sifatli yig'ishtirib olishni ta'minlash maqsadida soya ekini defoliatsiya qilishning samaradorligini ilmiy tomondan ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining "Qishloq

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli don yetishtirishda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi" (2018-2022 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soyaning yangi, mahalliy navlarini asosiy ekin sifatida yetishtirishda, dukkaklarini tez yetilishini ta'minlashda defoliatsiya agrotadbiridan foydalanish orqali yuqori, ertaki va sifatli soya doni yetishtirish va defoliatsiya samaradorligiga o'simlikning ko'chat qalinligi va qo'llanilgan preparatlarning ta'sirini ilmiy tomondan asoslash hamda ularning maqbul me'yorlarini aniqlab ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asosiy ekin sifatida ekilgan soya urug'larini unib chiqishi, ko'chat qalinligini va o'simlikning fazalar bo'ylab o'sishi, rivojlanishi va quruq massa to'plashini aniqlash;

soya barg sathi yuzasini amal davrida har bir fazada aniqlash;

defoliantni qo'llashdan oldin soya navlarining morfo-biologik holatini aniqlash;

defoliatsiya o'tkazilgandan 6 va 12 kun o'tib o'simlikda to'kilgan, qurigan, yarim qurigan, yashil barglar, pishib yetilgan, yarim yetilgan va yetilmay qolgan dukkaklar sonini aniqlash;

UzDEF defolianti me'yorlarini o'simlikdagi pishib yetilgan dukkaklar soni, dukkakdagi don vazni va hosildorlikka ta'sirini aniqlash;

soyaning ko'chat qalinligiga bog'liq holda UzDEF defoliantini turli me'yorlarini soya navlari bo'yicha tuproqda qolgan organik massa miqdorini aniqlash;

turli ko'chat qalinligiga bog'liq holda qo'llanilgan defoliant me'yorini soya doni tarkibidagi oqsil hamda moy miqdorining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash;

asosiy ekin sifatida ekilgan soya navlarini turli ko'chat qalinligida parvarishlab, soya donini erta pishib yetilishini ta'minlash uchun defoliant bilan ishlov berishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Andijon viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari, soyaning mahalliy, o'rtapishar Ustoz MM-60, o'rta-kechpishar Baraka navlari, UzDEF defolianti olingan.

Tadqiqotning predmeti soya navlari o'simligining o'sishi, rivojlanishi, dukkaklarining shakllanishi va ularga UzDef defoliantini turli me'yorlarining ta'siri, soya barglarining to'kilishi, dukkaklarning yetilishi, hosildorlik, donning kimyoviy tarkibi va moyning sifati hamda fiziologik ta'sirini o'rganish hamda iqtisodiy baholash tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy izlanishlar PSUEAITI va O'simlikshunoslik ITIda qabul qilingan "Методика проведения полевых агротехнических опытов с масличными культурами" (2010 y.), "Defoliantlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" (2004 y.), "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007 y.) qo'llanmalari asosida olib borildi va fenologik kuzatuvlar "Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур" (2019 y.), natijalarni statistik tahlili В.А.Доспехов (1985 y.) uslubida, don sifat

ko'rsatkichlaridan oqsil, moy na namlik miqdori "Granolyser" asbobi yordamida aniqlandi, tuproq va o'simliklarning kimyoviy tarkibi "Агрохимические методы исследования почв, растений и удобрений" (2014 у.) uslubi bo'yicha amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Soyachilikda ilk bor Andijon viloyatida ekilayotgan soyaning yangi mahalliy erta-o'rtapishar "Ustoz MM-60" va o'rta-kechpishar "Baraka" navlari 250-300 ming tup/ga ko'chat qalinligida parvarishlanib, dukkaklar 50-60 % pishish fazasida UzDEF defoliantini 4,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda hamda gektariga 350-400 ming tup ko'chat qoldirib parvarishlanganda esa UzDEF defoliantini 5,0 l/ga me'yorda qo'llanilishi ertaki, yuqori va sifatli don hosili olishga ijobiy tasir qilganligi aniqlangan;

ilk bor o'rganilgan soya navlaridagi dukkaklar soni, dukkakdagi don soni va uning vazni, 1000 dona don og'irligiga ko'chat qalinligi va UzDEF defoliantining ta'siri aniqlangan;

birinchi marotaba soya ekinida defoliatsiya o'tkazish, o'simlikning barglarini erta muddatlarda to'kilishiga, soya dukkaklarining nisbatan tezroq pishishiga, dukkalarining chatnab, donlarining to'kilishi keskin kamayishi hisobiga don hosildorligi oshishiga shuningdek soya donining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri va iqtisodiy samaradorligi aniqlangan;

soya o'simligini maqbul ko'chat qalinligida parvarishlab, dukkaklarini erta pishib yetilishini ta'minlash maqsadida UzDEF defolianti bilan ishlov berilganda nazoratdagiga nisbatan o'rtacha sof foyda 2086-7055 ming so'mgacha, rentabellik darajasi esa o'rtacha 13,9-47,3 % gacha yuqori bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Asosiy ekin sifatida soyaning yangi mahalliy o'rtapishar va o'rta-kechpishar navlari o'simliklarini maqbul ko'chat qalinligida parvarishlab, soya dukkaklari 50-60 % pishganda qo'llanilgan defoliant ta'sirida barglarining erta to'kilishi hisobiga o'simlik tanasidagi mavjud oziqa elementlaridan samarali foydalanish natijasida dukkaklarning nazoratdagi o'simliklarga nisbatan o'rtacha 4-11 kungacha O'zbekiston sharoitida birinchi marta erta yetilishini isbotlangan;

soyaning o'rtapishar "Ustoz MM-60" navini nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga belgilanib, UzDEF defoliantini 4,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda, don hosildorligi defoliant qo'llanilmaganga nisbatan 8,3 s/ga, nazariy ko'chat qalinligi 350-400 ming tup/ga belgilanib, UzDEF defoliantini 5,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda esa nazoratga nisbatan o'rtacha 13,0 s/ga gacha oshganligi aniqlangan;

soyaning o'rta-kechpishar "Baraka" navi o'simligini nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga belgilanib, UzDEF defolianti 4,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda defoliant qo'llanilmagan nazorat variantiga nisbatan don hosildorligi o'rtacha 8,2 s/ga, nazariy ko'chat qalinligi 350-400 ming tup/ga belgilanib, UzDEF defoliantini 5,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantga defoliant qo'llanilmagan nazorat variantga nisbatan o'rtacha 8,5 s/ga gacha qo'shimcha soya doni olingan;

defoliatsiya agrotadbirini o'tkazish hisobiga soyaning "Ustoz MM-60" navida shartli sof foyda o'rtacha 2086-7055 ming so'mgacha, rentabellik darajasi o'rtacha

13,9-47,3 % gacha, “Baraka” navida esa shartli sof foyda 2746-4606 ming so‘mgacha, rentabellik darajasi o‘rtacha 18,2-30,4 % gacha oshganligi aniqlagan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda zamonaviy dala va laboratoriya usullaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi va natijalarning matematik-statistik tahlildan o‘tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarning amaliy ma’lumotlarda tasdiqlanganligi, tajribalar natijalari respublika va chet el tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, olingan ma’lumotlar, hisobotlar ilmiy kengashlarda muhokama qilinib, ijobiy baholanganligi va tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza qilinganligi, ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, soyaning o‘rtapishar Ustoz MM-60 va o‘rta-kechpishar Baraka navlarining turli ko‘chat qalinligiga bog‘liq holda o‘sib-rivojlanishi, o‘simlik bo‘yi, shoxlar soni, barg satxi va uning indeksi, quruq massa to‘plashi hamda dukkaklar sonining shakllanishi, shuningdek defoliatsiya qilishdan oldin o‘simlik xolati, hususan barg soni va sathi, dukkaklarning pishganlik darajasi, bundan tashqari soya navlarida dukkaklar 50-60 % pishgan davrda UzDEF defoliant bilan maqbul ishlov berish me‘yorlari aniqlanib, defoliantlarni qo‘llash me‘yorlariga bog‘liq holda soya barglarining to‘kilishi, dukkaklarning to‘liq pishib yetilishi, ularning tabiiy ravishda chatnab donlarining to‘kilib ketishining oldi olinishi va pirovardida don hosildorligining oshishi hamda soya donidagi oqsil va moy miqdorining o‘zgarishiga ta’sir etish qonuniyatlari puxta o‘rganilganligi to‘g‘risidagi olingan ma’lumotlar o‘simlikshunoslik fanlari nazariyasini ilmiy jihatdan yanada boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, soya yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklari uchun soyani asosiy ekin sifatida ekib undan ertaki va yuqori hosil olishda maqbul ko‘chat qalinligi va defoliatsiyadan samarali foydalanish, defoliantni maqbul me‘yorlarini inobatga olgan holda turli ko‘chat qalinligida soya navlarini parvarishlab defoliatsiya o‘tkazish natijasida hosildorlikni oshirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish va aholini to‘yimli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlanishida xizmat qilishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Asosiy ekin sifatida soyaning yangi mahalliy o‘rtaki va kechpishar navlarini maqbul ko‘chat qalinligida parvarishlab, defoliatsiya tadbirini me‘yorida o‘tkazishning don hosildorligiga ta’sirini aniqlash borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga asosan:

fermer xo‘jaliklari uchun “Soya defoliatsiyasini sifatli o‘tkazish” nomli tavsiyanoma chop etilib, tasdiqlangan. (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 26 iyuldagi № 04/21-05/3667 -sonli ma’lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma bugungi kunda Andijon viloyatining soya doni yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarida soya defoliatsiyasini sifatli o‘tkazishda amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda;

asosiy ekin sifatida soyaning Ustoz MM-60 va Baraka navlarida ishlab chiqilgan defoliatsiyaning maqbul me‘yorlari hamda ko‘chat qalinligi bo‘yicha

Andijon viloyatining Oltinko‘l va Andijon tumanlarida jami 106,1 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 26 iyuldagi №04/21-05/3667-sonli ma‘lumotnomasi). Pirovardida, soyaning o‘rtapishar UstozMM-60 navini 350-400 ming tup gektariga qoldirib, dukkaklar 50-60 % pishib yetilganda UzDEF defoliantini 4,0 l/ga me‘yorda qo‘llanilganda, defoliatsiya qilinmagan variantiga nisbatan hosildorlik 7,3 s/ga ga, UzDEF defoliantini shu ko‘chat qalinligida 5,0 l/ga me‘yorda qo‘llanilganda esa hosildorlik 9,6 s/ga gacha oshishiga erishilgan. Buning natijasida soyadan yuqori don hosili olishda maqbul ko‘chat qalinligi defoliatsiya o‘tkazish hisobiga rentabellik darajasi 94,3-98,7 % ni tashkil etgan;

soyaning kechpishar Baraka navini 250-300 ming tup gektariga qoldirib, dukkaklar 50-60 % pishib yetilganda UzDEF defoliantini 4,0 l/ga me‘yorda qo‘llanilganda defoliatsiya qilinmagan variantga nisbatan hosildorlik 7,4 s/ga ga, defoliantni 5,0 l/ga me‘yorda qo‘llanilishi natijasida 7,2 s/ga gacha oshishiga erishilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 26 iyuldagi №04/21-05/3667-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada soyadan yuqori don hosili olishga erishilgan, maqbul ko‘chat qalinligi va defoliatsiya o‘tkazish hisobiga rentabellik darajasi 82,8-86,1 % ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Olib borilgan dala tajribalari Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan har yili aprobatsiyadan o‘tkazilib, ijobiy baholangan, har yili tayyorlangan hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 4 marotaba ma‘ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy maqola hamda 1 ta tavsiyanoma, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan. tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob‘ekt va predmetlari tavsiflangan. tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Asosiy ekin sifatida soya navlaridan yuqori va ertaki

hosil olish bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar sharhi » deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari, xulosalari va takliflari yoritilgan. Bunda, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib soya o'simligini tashqi muhit omillariga munosabati, soya o'simligini parvarishda ko'chat qalinliklari hamda defoliatsiyaning axamiyati, defoliantlar qo'llashni soya hosilining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarning tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, adabiyotlar tahlili so'ngida soya ekini defoliatsiya hamda desikatsiya qilish agrotexnologiyasi bo'yicha mamlakatimiz sharoitida juda kam darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi va ayniqsa soyadan ertaki don hosili olishni ta'minlash uchun uni defoliatsiya va desikatsiya qilishning samaradorligi o'rganilmaganligi va bu bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish dolzarb ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlar o'tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o'tkazilgan hududning tuproq va iqlim sharoitlari, tadqiqot o'tkazish tizimlari va uslublari, hamda tajriba dalasida amalga oshirilgan agrotexnik tadbirlar keltirilgan.

Dala tajribalari Andijon viloyati Andijon tumanidagi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi “Axborot-maslahat markazi (extension center)” davlat unitar korxonasining o'tloqi bo'z tuproqlarida olib borilganligi hamda iqlim sharoiti soya navlarini yetishtirishga qulay ekanligi bayon qilingan.

Tadqiqotlarning barcha yillarida soyani defoliatsiyasi agrotadbiri sentabr oyining birinchi va ikkinchi o'n kunligida o'tkazilib, bu paytda havo harorati, yog'ingarchilik miqdori, havo namligi hamda shamol tezligi defoliatsiya tadbirini o'tkazish uchun maqbul bo'lganligi qayd etilgan.

Tajribalar ikki xil ko'chat qalinligi (250-300; 350-400 ming/ga) parvarishlangan soya navlarida dukkaklar 50-60 % etilganda UzDEF defoliantini 4,0-5,0-6,0 l/ga me'yorlarda o'tkazilgan. Dala tajribalari 16 variantni o'z ichiga olib, 4 takrorlanishda va variantlar 2 ta yarusda joylashtirilgan.

Ilmiy izlanishlar PSUEAITda qabul qilingan “Методика проведения полевых агротехнических опытов с масличными культурами” (Krasnodar 2010), “Defoliantlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar” (2004), “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari” (2007) qo'llanmalari asosida olib borildi va fenologik kuzatuvlar “Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур” (2019), natijalarni statistik tahlili В.А.Доспехов (1985) usubida, don sifat ko'rsatkichlaridan oqsil, moy va namlik miqdori “Granolyser” asbobi yordamida aniqlandi, tuproq va o'simliklarning kimyoviy tarkibi “Агрехимические методы исследования почв, растений и удобрений” (2014) uslubi bo'yicha amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Asosiy ekin sifatida ekilgan soya navlarining defoliatsiyagacha morfobiologik holati”** deb nomlangan uchinchi bobida soya navlarining unib chiqishi va ko'chat qalinligi, soya navlarining o'sishi va rivojlanishi, soya navlari o'simligining barg sathi yuzasining shakllanishi, soya navlari o'simligining rivojlanish fazalarida quruq massa to'plashi, soya navlari

ko'chat qalinligiga bog'liq holda biometrik ko'rsatkichlarining o'zgarishi, soya navlarining defolisiyadan oldingi morfobilogik holati bayon etilgan.

Izlanishlarda dala tajribalari olib borish uchun barcha tadqiqot yillarida ham soya navlari o'simliklarni yetarlicha undirib, to'liq ko'chat olishga erishilganligi, soyaning o'sib-rivojlanishi, quruq massa to'plashi va barg sathi yuzasida farqlanish kuzatilganligi qayd etilgan.

Tajribada o'rganilgan soya navlari o'sishi va rivojlanishida sezilarli farq kuzatildi. Bunda 1 iyun muddatida o'tkazilgan kuzatuvlarda soyani ertaki o'rtapishar Ustoz MM-60 navida o'simlik bo'yi 25,4-27,5 sm ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich soyaning o'rtacha kechpishar Baraka navida 29,7-37,1 sm ga teng bo'ldi. Bunda Baraka navida o'simlikni bo'yi Ustoz MM-60 naviga nisbatan 3,7-5,2 sm ga baland bo'lganligi aniqlandi. O'simlikdagi barg soni mos ravishda Ustoz MM-60 navida 11,9-16,1 donani tashkil etib, ushbu ko'rsatkich Baraka navida 12,8-17 donani tashkil etgan.

O'sish rivojlanish davri davomiyligi ko'chat qalinligining ta'siri soya navlarini dukkak hosil qilish davridan boshlab sezila boshladi. Nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga bo'lgan variantlarda 111-117 kunning tashkil etgan bo'lsa, nazariy ko'chat qalinligi 300-450 ming tup/ga bo'lgan variantlarda 121-126 kunning tashkil etib, ushbu davr 9-10 kunga kechikishi aniqlangan.

To'liq pishish davri soyaning Ustoz MM-60 navini nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga qilib belgilangan variantlarda 135-143 kunning tashkil etgan bo'lsa, nazariy ko'chat qalinligi 300-450 ming tup/ga bo'lgan variantlarda 137-148 kunning tashkil etib, ushbu davr 1-5 kunga kechikishi aniqlangan.

1-jadval

Asosiy ekin sifatida ekilgan soyaning Ustoz MM-60 hamda Baraka navlarini o'suv davri davomiyligi, kun. 2021y.

Var	Soya navlari	Nazariy ko'chat qalinligi ming tup /ga	Defoliant me'yorlari	Ekilgan muddati	Umib chiqish	Shonalash	Gullash	Dukkak hosil qilish	Pishish	Vegetatsiya davri davomiyligi
1	Ustoz MM-60	250-300	Nazorat	18.apr	26.apr	01.iyun	09.iyul	07.avg	13.sen	140
2			UzDEF- 4,0 l/ga	18.apr	26.apr	01.iyun	09.iyul	07.avg	09.sen	136
3			UzDEF- 5,0 l/ga	18.apr	26.apr	01.iyun	09.iyul	07.avg	07.sen	134
4			UzDEF- 6,0 l/ga	18.apr	26.apr	01.iyun	09.iyul	07.avg	05.sen	132
5		350-400	Nazorat	18.apr	27.apr	03.iyun	13.iyul	15.avg	20.sen	146
6			UzDEF- 4,0 l/ga	18.apr	27.apr	03.iyun	13.iyul	15.avg	16.sen	142
7			UzDEF- 5,0 l/ga	18.apr	27.apr	03.iyun	13.iyul	15.avg	09.sen	135
8			UzDEF- 6,0 l/ga	18.apr	27.apr	03.iyun	13.iyul	15.avg	10.sen	136
9	Baraka	250-300	Nazorat	18.apr	27.apr	04.iyun	15.iyul	14.avg	20.sen	146
10			UzDEF- 4,0 l/ga	18.apr	27.apr	04.iyun	15.iyul	14.avg	15.sen	141
11			UzDEF- 5,0 l/ga	18.apr	27.apr	04.iyun	15.iyul	14.avg	10.sen	136
12			UzDEF- 6,0 l/ga	18.apr	27.apr	04.iyun	15.iyul	14.avg	09.sen	135
13		350-400	Nazorat	18.apr	28.apr	06.iyun	18.iyul	19.avg	24.sen	149
14			UzDEF- 4,0 l/ga	18.apr	28.apr	06.iyun	18.iyul	19.avg	22.sen	147
15			UzDEF- 5,0 l/ga	18.apr	28.apr	06.iyun	18.iyul	19.avg	19.sen	144
16			UzDEF- 6,0 l/ga	18.apr	28.apr	06.iyun	18.iyul	19.avg	17.sen	142

Tadqiqotlarda soyaning vegetatsiya davri davomiyligi ta'siri o'rganilib, bunda defoliant me'yorlarini oshirilishi natijasida o'simlikning anatomik va fiziologik belgilari o'zgarishi bargning tushishiga olib kelib, dukkak pishishni tezlashtirishi hisobiga pishish davri ertaroq boshlanishi aniqlangan.

Jumladan, soyaning Ustoz MM-60 navini nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga ekilib parvarishlangan, defoliant qo'llanilmagan variantda dukkaklarning pishish davri 143 kunni tashkil etgan bo'lsa, UzDEF defoliantining 4 l/ga me'yori qo'llanilgan 2 variantda 139 kunni, 5 l/ga me'yori qo'llanilgan 3 variantda 137 kunni, 6 l/ga me'yori qo'llanilgan 4 variantda 135 kunni tashkil etib nazoratga nisbatan 4-8 kun oldin pishib yetilgani aniqlangan (1-jadval).

Soyaning pishib yetilishini tezlashtirish uchun defolyatsiya tadbirini qo'llash, soya o'simliklarini qalin qilib ekib parvarishlanganda o'simliklarning hosil oldidan bargi va poyasini quritishi natijasida soya donini o'rtapishar navlarda 8-11 kun o'rtacha kechpishar navlarda 2-6 kunga erta pishib yetilishi ta'minlab, o'rim-yig'imni ertaroq amalga oshirish imkonini bergan.

Shuningdek, ushbu bobda soya navlarining ekish me'yorlari bilan bog'liq holda biometrik ko'rsatkichlarini o'zgarishi bayon qilingan bo'lib bunda, 1 tup o'simlikdagi dukkaklar soni, dukkaklardagi donlar soni, 1 tup o'simlikdagi donlar vazniga va 1000 ta don vazni soya navlarini ko'chat qalinligi va defoliantlarni qo'llash me'yorlariga ham bog'liqligi kuzatilgan.

Soyaning Ustoz MM-60 navini nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya o'tkazilmagan (nazorat), shuningdek UzDEF defoliantini 4, 5, 6 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda defoliatsiyadan oldin dukkaklar soni 48,3-50,7 donani, o'simlik bo'yi 121,7-128,6 sm ni, dastlabki dukkakning o'rni 17,1-18,1 sm ni, bir tup o'simlikdagi don soni 80,1-106,3 donani, vazni 14,1-20,7 g ni, 1000 ta don vazni 175,7-196,5 g ni tashkil etgan bo'lsa, nazariy ko'chat qalinligi 350-400 ming tup/ga belgilangan variantlarda hosil elementlari ko'rsatkichlari kamayib, defoliatsiyadan oldin dukkaklar soni 47,7-48,8 donani, bir tup o'simlikdagi don soni 87,5-92,5 donani, vazni 16,6-18,0 g ni, 1000 ta don vazni 138,7-194,5 g bo'lganligi aniqlangan.

Soyaning Baraka navida xam yuqoridagi qonuniyatlar qayd etilib, nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga belgilangan variantlarda nazariy ko'chat qalinligi 350-400 ming tup/ga belgilangan variantlarga nisbatan hosil elementlari ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, defoliatsiyadan oldin dukkaklar soni 2,3-2,5 donaga, bir tup o'simlikdagi don soni 19,3-25,1 donaga, vazni 3,3-4,3 g ga, 1000 ta don vazni 5,3-5,7 g ga ortiq bo'lganligi aniqlangan.

Soyaning Ustoz MM-60 navini nazariy ko'chat qalinligi 250-300 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya tadbiri o'tkazilmagan 1-variantda bir o'simlikdagi don soni 96,5 donani, bir o'simlikdagi don vazni 17,5 grammni, 1000 dona don vazni esa 181,6 grammni tashkil etgan bo'lsa, UzDEF defoliantini 4 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan 2-variantda bir o'simlikdagi don soni 106,3 donani, bir o'simlikdagi don vazni 20,7 grammni, 1000 dona don vazni 195,1 grammni tashkil etib, nazorat variantga nisbatan bu ko'rsatkichlar mos ravishda dukkakdagi don soni 9,8 donagacha, bir o'simlikdagi don vazni 3,2 grammgacha, 1000 dona don vazni esa


13,4 grammgacha yuqori bo‘lgan.

Ushbu navni nazariy ko‘chat qalinligi 350-400 ming tup/ga belgilangan, 5 l/ga me‘yorda qo‘llanilgan 7-variantda hosil elementlari bo‘yicha boshqa me‘yorlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilib, bir o‘simlikdagi don soni 92,5 donani, bir o‘simlikdagi don vazni 18,0 g ni, 1000 dona don vazni esa 194,5 g ni tashkil etib, bu esa nazorat variantiga nisbatan bir o‘simlikdagi don soni 12,4 donagacha, bir o‘simlikdagi don vazni 3,9 g gacha, 1000 dona don vazni esa 18,8 g gacha yuqori bo‘lgani ma‘lum bo‘lgan.

Soyaning o‘rtaki kechpishar Baraka navini nazariy ko‘chat qalinligi 250-300 ming tup/ga belgilangan, UzDEF defoliantini 4 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilganda hosil elementlari bo‘yicha yuqori natijalar aniqlandi. Bunda defoliatsiyadan keyin dukkaklar soni 63,9 donani, bir o‘simlikdagi don soni 137,8 donani, bir o‘simlikdagi don vazni 20,2 g ni, 1000 dona don vazni esa 146,3 g ni tashkil etgan.

Ushbu navni nazariy ko‘chat qalinligi 350-400 ming tup/ga belgilangan, UzDEF defoliantini 5 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan 15-variantda nazorat variantga nisbatan dukkaklar soni 3,5 donagacha, bir o‘simlikdagi don soni 11,5 donagacha, bir o‘simlikdagi don vazni 2,5 g gacha, 1000 dona don vazni esa 8,0 g gacha yuqori bo‘lgani kuzatilgan.

Mazkur bobda shuningdek, soyaning Ustoz MM-60 va Baraka navlarini defoliatsiyadan oldingi barg to‘kilishi va dukkaklar yetilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Bunda soyaning Ustoz MM 60 navida nazariy ko‘chat qalinligi 350-400 ming tup/ga etib belgilangan variantlarda nazariy ko‘chat qalinligi 250-300 ming tup/ga bo‘lgan variantlarga nisbatan o‘simlik bo‘yi 2,5-11,8 sm, barglar soni 5,6-6,1 donaga, yashil barglar 0,7-6.3 donaga, yetilmagan dukkaklar soni 1,8-2,0 donaga ko‘pligi, qurigan barglar 0,6-1,4 donaga, jami dukkaklar soni 1,9-2,0 donani, yetilgan dukkaklar soni 3,6-4,3 donaga, yarim yetilgan dukkaklar soni 1,8-2,0 donagacha kamligi ma‘lum bo‘lgan (1-2 rasmlar).




1-rasm. Soyaning defolitsiyadan oldingi barglarini to‘kilish ko‘rsatkichlari.

Soyani Baraka navini nazariy ko‘chat qalinligi 250-300 ming tup/ga etib belgilangan variantlarda defoliatsiya o‘tkazishdan avval o‘simlikning bo‘yi o‘rtacha 130,2-134,0 smga, bir tup soyadagi jami barglar soni 125,9-129,6 donaga, yashil barglar soni 83,1-85,1 donaga, yarim qurigan barglar soni, 31,6-33,7 donaga, qurigan barglar soni 8,6-9,0 donaga, to‘kilgan barglar soni 1,5-1,7 donaga, jami dukkaklar soni 58,7- 68,8 donaga, shundan yetilgan dukkaklar soni 31,4-39,7 donaga, va yarim yetilgan dukkaklari 17,6-20,8 donaga ga teng bo‘lganligi aniqlangan.

Ushbu navni nazariy ko‘chat qalinligi 350-400 ming tup/ga etib belgilangan variantlarda defoliatsiya o‘tkazishdan avval o‘simlikning bo‘yi o‘rtacha 142,8-145,3 sm ni, bir tup soyadagi jami barglar soni 138,1-140,5 donani, yashil barglar soni 93,9-95,6 donani, yarim qurigan barglar soni, 31,3-32,0 donani, qurigan barglar soni 11,0-11,2 donani, to‘kilgan barglar soni 1,8-1,5 donani, jami dukkaklar soni 62,4-65,8 donani, shundan yetilgan dukkaklar soni 33,1-34,6 donani, va yarim yetilgan dukkaklari 18,7-19,8 donani tashkil etganligi aniqlangan.


Dissertatsiyaning “Soya navlarinig turli ko‘chat qalinligida UzDEF defoliantini har xil me‘yorlarda qo‘llashning samaradorligi” deb nomlangan to‘rtinchi bobida turli ko‘chat qalinliklarida parvarishlangan soya navlari o‘simliklarini barg to‘kilishi va dukkaklar yetilishiga defoliatsiya me‘yorlarining ta’siri, soya navlarining don hosildorligiga ko‘chat qalinliklari va defoliatsiyaning ta’siri, defoliat me‘yorlari va ko‘chat qalinligining soya doni sifat ko‘rsatkichlarini bog‘liqligi bayon qilingan.



2-rasm. Soyaning navlarining dukkaklarini yetilish ko‘rsatkichlari, dona (Defoliatsiyadan oldin).

O‘rganilayotgan UzDEF defoliantini qo‘llash me‘yorlari soya o‘simligi barglari to‘kilishiga ta’siri bo‘yicha 6 va 12 kun o‘tib fenologik kuzatuvlar olib borilib, defoliatsiya o‘tkazilgandan so‘ng 6 kun o‘tib olib borilgan ilmiy izlanishlarda soyaning Ustoz MM-60 navini nazariy ko‘chat qalinligi 250-300 ming/tup ga qilib belgilangan defoliatsiya tadbiri o‘tkazilgan variantlarda

